

GRIPP KASALLIGI

**Egamberdiyeva Soxiba
Dedamirzayeva Matluba**

Mo'ydinova Oydina

**Chortoq Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat Salomatligi Texnikumi o'qituvchilari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada gripp kasalligi,alomatlari,belgilari,rivojlanish sabablari,gripp kasalligini tashxislash va aniqlash,davolash va oldini olish chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: gripp, virus, infektsiya, isitma, nafas yo'llari.

Gripp — virus tabiatli o'tkir infektsion respirator (nafas yo'llari) kasalligidir. Gripp virusi juda yuqumli — ya'ni, uning ko'p hollarda inson tanasiga kirishi kasallikning rivojlanishiga olib keladi. Kasallik tana haroratining ko'tarilishi bilan birga kechadi va ko'pincha 3-5 kundan umumiy holat yaxshilanadi.



GRIPPNING ALOMATLARI VA BELGILARI

Intoksikatsiya natijasida hosil bo'ladigan gripp alomatlariga:

- Juda tez (3-4 soat davomida) intoksikatsiya belgilarining o'sishi;
- Tana haroratining ko'tarilishi — 39°C va yuqori;
- Kuchli titroq;

- Holsizlik;
- Mushaklar va bo’g’imlardagi og’riq;
- Qattiq bosh og’rig’i
- Ko’zning yoshlanishi;
- Yorug’likka sezuvchanlik.

Intoksikatsiya bilan birga parallel ravishda respirator alomatlar kuzatiladi:

- Tomoq og’rishi;
- Quruq yo’tal;
- Burun oqishi.

Ba’zida qorin og’rig’i va ich ketishi kuzatiladi. Grippda yuqori tana harorati bir necha kungacha davom etishi mumkin, ko’pincha isitma tushiruvchi dorilar ta’siri natijasida pasaymaydi. Kasallik asoratlarsiz bo’lsa gripp 7-10 kun davom etadi. Bu vaqt davomida gripp alomatlari asta-sekin yo’q bo’lib ketishi mumkin, ammo umumiy holsizlik ikki haftagacha davom etishi mumkin.

Grippning qo’shimcha belgilari qanday?

Virus infektsiyalangan odamning yo’talishi natijasida tomchilar orqali havoga tarqaladi va bemor bilan bir xil yopiq muhitda bo’lgan boshqa odamlar bu havodan nafas olishadi va virusni nafas yo’llariga yuqtirishadi. To’g’ridan-to’g’ri nafas olish tizimining shilliq qavatiga joylashadigan virus 1 dan 7 kungacha inkubatsiya davrini to’ldirgandan so’ng, kasallik yuqori nafas yo’llarida infektsiyaga olib keladi va kasallikning birinchi belgilari paydo bo’ladi. Deyarli barcha yoshdagilardan uchraydigan gripp belgilarini quyidagicha sanab o’tish mumkin:

1. **To’satdan rivojlanayotgan isitma:** isitma barcha virusli kasallikkarda bo’lgani kabi grippda ham paydo bo’ladigan birinchi alomatlardan biridir. Kasallikning inkubatsiya davri tugagandan so’ng, to’satdan yuqori isitma kuzatiladi va qo’ltiq osti (qo’ltiq) yoki peshona mintaqalaridan o’lchanadigan tana harorati 38 darajadan yuqori bo’ladi.

2. **Yo’tal:** Yuqori nafas yo’llarining keng tarqalgan infektsiyalaridan biri bo’lgan grippda yuzaga keladigan yana bir alomat yo’taldan shikoyat qilishdir. Nafas olish yo’llarining shilliq qavatida rivojlanadigan yallig’lanish bu yerda sekretsiyaning ko’payishiga olib keladi va tez-tez takrorlanadigan yo’tal kuzatiladi.

3. **Tomoq og’rig’i:** nafas yo’llarining shilliq qavatiga joylashib, bu mintaqada keng tarqalgan infektsiyaga sabab bo’lgan gripp virusi, inkubatsiya davrini tugatgandan so’ng tomoq og’rig’i va yutishda qiyinchilik kabi shikoyatlarni keltirib chiqaradi. Keyinchalik jarayonda tomoq shilliq qavati yo’tal bilan bezovtalanadi va bu ovozi va ovqatlanishdagi qiyinchiliklar kabi qo’shimcha shikoyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. **Mushak og’rig’i:** Virusli infektsiya bo’lsa, tana qarshiligining zaiflashishi tufayli odamda tez-tez mushak og’rig’i va charchoq shikoyatlari kuzatiladi. Kasallik paytida immunitet tizimini qo’llab-quvvatlash uchun to’g’ri dam olish va ovqatlanish juda muximdir.

5. GRIPP RIVOJLANISHI SABABLARI

Kasallikning yuzaga kelishi sabablari yuqori nafas olish yo’llari shilliq qavatini gripp viruslari tomonidan shikastlanishidir. Infektsiya (kasallik) manbai gripp bilan kasallangan odam. Kasallik yuqishining asosiy yo’nalishi havo-tomchi yo’llari: yo’talish, aksa urish, gapirish va hatto oddiy nafas olish. Lekin virus maishiy yo’l bilan yuqishi mumkin — ro’molcha, taomlar, choyshab orqali. Gripp virusi juda yuqumli.

GRIPPNI TASHXISLASH VA ANIQLASH

Grippni tashxislash odatda klinik ko’rikka asoslangan. Haroratning keskin ko’tarilishida imkon qadar tezroq shifokorga murojat qilish kerak. Gripp bo’lganda shifokorning nazorati juda muhimdir, chunki bu mumkin bo’lgan bakterial asoratlarning boshlanishini o’z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Asoratlarning paydo bo’lishi haroratning qayta ko’tarilishi, yo’talning kuchayishi va umumiyl holatning biroz yaxshilangandan keyin yana yomonlashishi kabi belgilar bilan namoyon bo’ladi va odatda kasallikning 4-5 kuniga to’g’ri keladi. Bu holatda qo’shimcha tahlillarni o’tkazish kerak — umumiyl qon tahlili, ko’krak qafasi va sinuslar rentgenogrammasi.

GRIPPNI DAVOLASH VA KASALLIKNI YENGILLASHTIRISH

Grippni davolash kompleks muolajalarni talab qiladi, lekin gripp bilan kurashishda va organizmning tiklanishida immun tizim katta rol o’ynaydi va shuning uchun immunitetni rag’batlantirish chora-tadbirlarini qabul qilish zarur. To’liq dam olish, ko’p suyuqlik ichish (detoksikatsiya qilish uchun), spirtli ichimliklar va chekishni cheklash tavsiya etiladi. Ayni paytda samarali antivirus dorilar grippning davomiyligini, isitma va boshqa alomatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Boshqa qo’llanadigan dori vositalariga:

- Simptomatik davolovchi preparatlar (isitmani tushiruvchi, balg’am ko’chiruvchi);
 - Immunostimulyatorlar — bunday xususiyatlar ayniqsa vitamin C da ko’p;
 - Interferon;
 - Kasallikning turli bosqichlarida virusga qarshi preparatlar;
 - Antigistaminlar.

Antibiotiklar faqat ikkilamchi bakterial kasalliklar mavjud bo’lgandagina buyuriladi, ular viruslarga qarshi umuman samara bermaydi, lekin ko’pincha xalq orasida shamollah yoki gripp almatlari kuzatilganda shifokor ko’rsatmasiz antibiotiklarni qabul qilish keng tarqalgan. Antibiotiklarni viruslarga qarshi qabul

qilish nafaqat samara bermaydi, balki bakteriyalarning antibiotiklarga qarshiligini oshiradi.

GRIPPNING ASORATLARI

Gripp virusi nafas yo'llari epitelial hujayralariga ta'sir qilganligi bois kasallikning asoratlari natijasida bakterial kasalliklar, jumladan bronxit, pnevmoniya, otit, gaymorit yoki boshqa sinus yallig'lanishlariga olib kelishi ehtimoli bor. Jiddiy bakterial asoratlarga — meningit, miya qobig'inинг yallig'lanishi misol bo'la oladi. Gripp, shuningdek, bemorda mavjud surunkali kasalliklarni kuchaytirishi mumkin.

GRIPPNI OLDINI OLISH VA PROFILAKTIK CHORALARNI QO'LLASH

Grippning oldini olishning uchun eng samarali yo'li — o'z immun tizimini butun yil davomida yaxshi holatda saqlash hisoblanadi. Immunitetni mustahkamlashning turli yo'llari bor, bular o'z ichiga oladi:

1. Tanani chiniqtirish;
2. Faol hayot tarzi;
3. To'g'ri va muvozanatli oziqlanish;

Boshqa asosiy tibbiy usul bu emlash bo'ladi. Vaktsinatsiya gripp mavsumi boshlanishidan 2-3 oy oldin (odatda oktyabr-noyabr oylarida) virus muayyan turiga (shtamm) qilinadi. Vaksinatsiya qancha ko'p virus shtammlariga qarshi bo'lsa va qanchalik ko'p kishiga qilinsa, shuncha samarali hisoblanadi. Bunday holda, bu aholining katta ijtimoiy guruqlarini himoya qilishga imkon beradi. Shuningdek, epidemiya davrlarida profilaktik chora-tadbir tarzida antivirus preparatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish, kasallangan odamlardan yiroq yurish, maxsus niqoblar taqish, oila a'zolari kasallanganda tozalikka e'tibor qilish va xonani tez-tez shamollatish kasallanish ehtimolini kamaytiradi.

Grippni davolash

Grippni davolash usullari doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib boradi, chunki gripp virusining o'zi doimo mutatsiyaga uchrab, o'zini yangilaydi, shuning uchun oldingi vaksinalar foyda bermaydi. Kasallikni davolash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- harorat tushiruvchi dorilar;
- virusga qarshi dorilar;
- tomirlarni toraytiruvchi dorilar;
- balg`am ajratuvchi va yo'talga qarshi dorilar;
- multivitaminlar;
- o'simlik damlamasi va qaynatmalari bilan ingalyatsiya muolajasi;

- immunitetni ko`taruvchi dorilar;
- antigistamin dorilar.

Xulosa:

Kasallik davrida bemorlar ko'proq vitaminlarni o'z ichiga olgan suyuqliklar va rezavor mevalardan tayyorlangan nastoykalarni ichishlari tavsiya qilinadi. Bolalarda grippni davolash uchun yotoqda dam olish tavsiya etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ahmedov A., Sodiqova Z. Normal anatomiya va fiziologiyasi.T., 2000.
2. Ganiyev S. V. Travmatologiya va ortopediya asoslari.
3. Ilxo'jayeva K.E., Xudoyberganova B.T. Fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya. T., 2004.
4. Murodov N.N. O'zbekiston kasaba uyushmasining shifo makonlari. T., 1995.
5. www.avitsenna.uz